

## O`ZBEK MUSIQASIDA QO`SHIQ JANRI.

*Xashimova Dilzoda Baxoriddin qizi*

*Marg`ilon shaxar 8-Bolalar musiqa va san`at maktabi nazariy fanlar o`qituvchisi.*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O`zbek musiqasida qo`shiq janri kelib chiqishi tarixi omillari haqida kompozitorlar va bastakorlarning qo`shiqchilik ijodi asarlari haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlari:** *Qo`shiq, folklor, ozbek musiqasi, kasbiy musiqa, maqom.*

**ABSTRACT**

*In this article, composers and the works of the composers` singing works are discussed.*

**Key words:** *song, folklore, uzbek music, professional music, status.*

**Kirish:**

Qo`shiq janri xalqimiz amalyotida keng tarqalgan janrlardan biridir. U xam asosan barmoq vaznidagi xalq og`zaki ijodi janrlari bilan diapazoni uncha keng bo`lmagan kuylarga aytiladi. Bunga ``Baxor keldi`` Daryo toshqin`` ``Yallama yorim`` va boshqalar bunga misol bo`la oladi. Qo`shiqlar ba`zan naqarot bilan keladiki ular kuplet shaklidagi qo`shiq deb ataladi.

Vatan xaqidagi qo`shiqlar- vatanimizni madh etib kuylangan qo`shiqlar ``O`zbekiston respublikasi madhiyasi`` A. Oripov she`ri M. Burxonov musiqasi. Vatanimiz faxri va iftixori bo`lgan madxiyamiz xar doim jaranglaganda xalqni va o`sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruxida tarbiyalaydi va mustaqqilligimizni asrab avaylashga undaydi.

Bolalar qo`shiqlari- Xalqimiz qadim zamonlardan farzandlarimiz ma`naviy va jismoniy tarbiyaga alohida etibor qaratishgan. Tez aytishlardan tortib allagacha, topishmoqlardan sanamachoqlargacha bevosita bolalar janrlari va na`munalarini tashkil etadi. Masalan: ``Boychechak``, ``Oftob chiqdi``, ``Laylak keldi``, ``Ramazon qo`shiqlari`` va xokazolar.

Alla- Bola mehri bilan tinglaydigan qo`shiq alladir. Deyarli barcha xalqlarda alla bor.

Xalq qo`shiqlari- adabiy shaklda xayotni xar tomonlama tasvirlagan. Shu sababli xalq qo`shiqlari xar bir mamlakatning musiqa adabiyotida katta o`rin tutadi. Rossiyada XVIII asr oxirlariga kelib, xalq qo`shiqlarining to`plamlari paydo bo`la boshlaydi. Mashxur rus klassik kompozitorlaridan Balakirev,

Musorskiy, Lyadov, Pimskiy Korsakov, Chaykovskiy va boshqalar o`zlarining ijodlarida bu qo`shiqlaridan foydalanishgan.

Inson kayfiyati xayotidagi vaziyatlar ta`sirida qadimdan insonlarning qalbida lirik kechinmalari paydo bo`lishi qo`shiq yaratishga sabab bo`lgan.

Mehnat qo`shiqlari: mexnat qo`shiqlari boshqa xalqlarda bo`lgani kabi mexnat jarayonini o`zida ifodalashi bilan mashxur. Ma`lumki xunarmandchilik tashvishdan, irodalikni namoyish qilishdan ba`zan insonning o`zini majbur qilishdan iborat bo`ladi. Ayniqsa kun davomida og`ir va zerikarli mexnatda ovunish maqsadida qo`shiqlar paydo bo`lgan. Masalan: ``Chux xo chux``, ``O`roqchilar qo`shig`i``, ``Xo`p mayda``, ``Xar dursi``, Ozam zam`` va boshqalar. Mavsum marosim qo`shiqlari- Xalq poeziyasining tarkibiy qismini tashkil etadi. Bu qo`shiqlar xalqimizning qadimiy ommaviy bayramlarini, oilaviy rasm-rusumlari bilan bog`liqdir. Maxmud Qoshg`ariyning ``Devoni lug`ati turk`` asarida ma`lum bo`ladiki Mavsum va ma`rosimlarga oid xalq qo`shiqlarini tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi.

To`y marosim qo`shiqlari- To`ylardagi o`lanlar, yor yorlar, kelin salomlar misol bo`la oladi.

A`za motam qo`shiqlari- Inson o`limiga bagishlangan marsiyalardir.

Lirik qo`shiqlar- Xalq qo`shiqlarining xamma turi qaysi mavzuni yoritishdan qat`iy nazar lirik asarlar na`munasi xisoblanadi. Folklorshunoslikda lirik qoshiqlar na`munasi sevgi muhabbat ichki kechinmalar gavdalanadi.

Ma`lum vaqtda va vaziyatda ijro etiladigan qo`shiq janrlari shartlangan qo`shiq janrlari deyiladi. Masalan: Mavsum ma`rosim, mehnat qo`shiqlari, toy marosim qo`shiqlari.

Xoxlagan vaqtda istalgan vaqtda ijro etiladigan qoshiqlar ya`ni vaziyat bilan bog`liq bo`lmagan qo`shiqlar shartlanmagan qo`shiqlar deyiladi.

### MUXOKAMA VA NATIJALAR

Bizga ma`lumki O`zbek xalq musiqa merosi 2 turga bo`lingan birinchisi Og`zaki an`anadagi kasbiy musiqa, ikkinchisi O`zbek musiqa folklori. Bu ikki yo`nalish bir birini to`ldiruvchi va o`zining alohida hususiyatlari va sifatlariga ega yo`nalishdir.

O`zbek musiqa folklori 3qismga bo`linadi:

1: Mexnat qo`shiqlari: Bularga Dexqonchilik bilan bog`liq bo`lgan qo`shiqlar, Hunarmandchilik bilan bog`liq bo`lgan qo`shiqlar, Chorvachilik bilan bog`liq bo`lgan qo`shiqlar.

2: Marosim qo`shiqlari: Bularga Mavsumiy marosim qo`shiqlari, oilaviy marosim qo`shiqlari.

3: Erkin mavzudagi qo`shiqlari: Bularga Lapar, Yalla, Terma, Doston, O`lan.

Og`zaki ananadagi kasbiy musiqaga:

Maqomlar: Bularga Buxoro shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg`ona Toshkent maqomlari.

Cholg`u musiqasi, Ashula, Katta ashula.

Mahalliy uslublar: Buhoro Samarqand, Surxondaryo Qashqadaryo, Xorazm, Farg`ona Toshkent.

### **Xulosa.**

Mamlakatimizda milliy musiqamiz madaniyatimiz klassik asarlarimizga etibor katta. Buni davlatimiz siyosatida ham ko`rishimiz mumkin. Turli tanlovlar, festivallar yoshlarga milliy an`analarimiz milliy qo`shiqchiligimizni rivojlantirish borasida amalga oshiralayotgan ishlar bu barchasi O`zbek san`ati ni rivojlantirish dunyoga tanitish asosiy maqsaddir. Kelajak avlodga bizning san`atimiz butun holatda yetib borishi kerakligi siz va bizning asosiy vazifamizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O`zbek musiqa tarixi. T.E. Solmoniva Toshkent 1981
2. M.Ashrafiy ``Musiqaning mening hayotimda``
3. Forobiy. Risolalar Toshkent 1975
4. Shavkat Mirziyoyev Miromonovich 3.07. 2017 Mamlakatimiz ziyolilari bilan bo`lgan nutqi.